

Muntazir (1831-1889)



Muntazir (1831-1889)

Muntazir (taxallusi; ismi Yusufqori) (1831, Qo'qon — 1889, Andijon) — shoir. Qo'qondagi «Madrasai oliy»ni tugatgach, mudarrislik qilgan. U Nizomiy, Hofiz, Navoiy, Bedil asarlarini chuqur o'rgangan.

Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Pisandiy, Muhayyir, Rojij Marg'inoniy bilan yaqindan tanishgan, adabiy hamkorlik qilgan. Xudoyorxon o'g'li Nasriddinbekni Andijonga hokim etib tayinlaganda, Muntazirni unga maslahatchi qilib yuboradi (1860). Shu sababli umrining oxirigacha Andijonda yashab ijod qiladi.

Muntazir o'zbek va fors-tojik tillarida yozgan zullisonayn shoir sifatida shuhrat qozongan. Mumtoz she'riyatning an'anaviy janrlarida ijod qilgan, ko'proq g'azal, muxammas, muvashshah, ruboiylar yozgan. Ularda zamonadan shikoyat, erk va ma'rifat g'oyalari ifodalangan. Muntazirning «Bayozi Muntazir» she'rlar to'plami bizgacha yetib kelgan. Bayozga 800 misradan ko'proq she'rlari kirgan.

2023-09-06 22:32:56